

PEDAGOGIK МАХОРАТ

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2021-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2021, № 6

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruuiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Aljon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

DOLZARB MAVZU	7
Rustam JUMAYEV. Raqobatbardosh sifatli ta'lrim: xalqaro tajriba va o'zbekiston ta'limi	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....	10
Moxira RASULOVA. Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanim talabalarni o'qitish metodikasi	10
Matluba ZARIPOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish yo'li va usullari	13
Ruqiya ASHURBAYEVA. G'arb ta'lim tizimida integrativ tamoyillarning tatbiqi	17
Olim TO'RAQULOV. Abdumo'min SABURBAYEV, Bunyod ESHONQULOV. Jalol AXMEDOV. Axborotli ta'lim muhitini raqamlashtirish: muammolar va yechimlar	20
Ruxshona ISROILOVA. Ona tini o'qitish metodikasi fanidan talabalarning bilimini baholashda kredit-modul tizimining afzalliliklari	25
Parvina NURALIYEVA. Ta'limda raqamli texnologiyalar va ularning zamonaviy jamiyatga ta'siri	28
Dilshod KULMURADOV. Rivojlangan mamlakatlardagi raqamli loyihalash kompetensiyalari hamda masofaviy ta'limning rivojlanishini o'rganish metodikasi	32
Ilhom JO'RAYEV. Pedagogik faoliyatda mobil texnologiyalardan foydalanishning qulayliklari	36
Mels MAHMUDOV, Flora NE'MATOVA. Designing primary education: problems and solutions	39
Sojida NAJIYEVA. Talabalar ijodiy faoliyatini va kredit-modul tizimdagи pedagogik ahamiyati	44
Гуландом САГДУЛЛАЕВА, Мамлакат МУСТАФАЕВА, Феруза ХАЛИЛОВА. "Blended learning" - современный подход к преподаванию в медицинском образовании	47
Nigina ISMATOVA. Kompetentlik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish	50
Shomurod MUSTAFAYEV. Jahon artpedagogik tizimlari tahlili orqali san'atning bilish funksiyasini takomillashtirish	53
Bahodir NORMO'MINOV. Bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari	57
G'ulom HAKIMOV. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etishda uni boshqarish samaradorligini baholash	60
I.A. ESHMAMATOV, A. ABDIRAXMONOV. Pedagog kadrlarning individual kasbiy layoqatga egaligini o'rganish monitoringi	63
Акрамжон ТЕШАБОЕВ. Современные подходы к физическому развитию детей дошкольного возраста	67
Nuriddin ACHILOV. Al-Hakim at-Termiziying "Qaytarilgan amallar" ("al-manhivot") asari va uning tarbiyaviy ahamiyati	76
Gullola RAXMONOVA. Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ma'naviy –axloqiy tarbiyaning o'rni	80
Asroridin SAMIYEV. Talaba-yoshlarni hadis asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi	83
Gulshoda XUDOYQULOVA. O'smir shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari	87
Nilufar DALIMOVA. Avlod ijtimoiy subyekt sifatida	91
Nozima MULLABAYEVA. O'smirlar jamoasida autsayderlar paydo bo'lishining psixologik omillari	94
Ситорабону ХОЛБОЕВА. Педагогические основы подготовки девушек студенток семейным отношениям	97
Анвар ЭРГАШЕВ. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения	101
Fozil TO'RAXONOV. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirishning metodik asoslari	105
Аслиддин УЗОҚОВ. Таалabalarda мафкуравий иммунитетни шакллантириш технологияси	109
Саломат ЖҮРАЕВА. Узлуксиз таълимда ватанпарварликни шакллантиришнинг педагогик омиллари	114
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	118
Rustambek QO'LDOSHEV. Boshlang'ich sinf chapaqay o'quvchilarga beriladigan pedagogik yordam va yozuvga o'rgatish jarayonida foydalilanligidan texnologiyalar	118
Ruxshona ISROILOVA. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi asosida ona tilini o'qitish metodikasi fani ta'limi muammoining fanda yoritilishi	123
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish	126

TALABALARNI MA'NAVIY SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY –AXLOQIY TARBIYANING O'RNI

Mazkur maqolada hozirgi kunda oliv ta'lim dargohi talabalarini milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida, yuksak ma'naviyatli, tafakkuri teran, ijtimoiy hayotda o'z o'rmini topishi uchun ma'naviy axloqiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'rifat, oliv ta'lim, umuminsoniy qadriyatlar, globallashuv, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, ijtimoiy hayot, intellektual, jamiyat.

В данной статье говорится о роли и значении духовно-нравственного воспитания студентов высших учебных заведений на основе национальных, духовных, общечеловеческих ценностей, с высокой духовностью, глубоким мышлением, для того, чтобы они нашли свое место в общественной жизни.

Ключевые слова: духовность, духовно - нравственное воспитание, просвещение, высшее образование, общечеловеческие ценности, глобализация, национальные ценности, духовное наследие, социальная жизнь, интеллектуальная, общество.

This article talks about the role and importance of spiritual and moral education of students of higher educational institutions on the basis of national, spiritual, universal values, with high spirituality, deep thinking, so that they find their place in public life.

Key words: spirituality, spiritual and moral education, enlightenment, higher education, universal values, globalization, national values, spiritual heritage, social life, intellectual, society.

Kirish. Respublikamizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni izchillik bilan amalga oshib borayotganligi ta’lim-tarbiya tizimida ham tub o‘zgarishlarni yaratish imkonini bermoqda. Bu o‘zgarishlarni o‘sib kelayotgan yosh avlodni yuksak ma’naviy-axloqiy tarbiyalari qilib shakllantirishga qaratilgan. Chunki ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo‘lgan shaxsgina insonparvar, vatanparvar, mehnatsevar, ota-onasining qadriga yetadigan, yaxshilik, mard, jasur, sabr-qanoatli, tashabbuskor, o‘z-o‘zini anglaydigan komil shaxs bo‘la oladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ma’naviyatga, ta’lim – tarbiyaga, milliy kadrlar tayyorlashga birinchi darajali ahamiyat bermaydigan jamiyat, davlat, xalq va millat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etolmaydi. Xalqi ma’naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk bo‘lmagan mamlakat tabiiy - iqtisodiy boyliklari behisob, harbiy jihatdan qudratli bo‘lgan taqdirda ham buyuk davlat bo‘la olmaydi.

Ma’naviyat nafaqat inson, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi hisoblanadi. Ma’naviy yangilanish xalqning boy milliy-ma’naviy merosini, o‘ziga xos miliy yashash va tafakkur tarzini har tomonlama chuqur o‘rganish, yoshlarni ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash kerak.

Hozirgi sharoitda oliv ta'lim dargohlari talabalarni yuksak ma'naviyatni egallah, atrofda ro'y berayotgan voqealarga dahldorlik, iymon-e'tiqodli, aqliy faol bo'lishi, ishbilarmon bo'lishi, o'z qobiliyatlarini tinimsiz takomillashtirib borish, irodaviy zo'r berish, yuqori malakani egallah, raqobatdan qo'rqmaslik va uni yengib chiqishga qodirlik ijtimoiy kamolotga xizmat qilish ruhida tarbiyalashlari lozim. Ana shu fazilatlarni egallagan talabalarda kelajakda o'z amaliy faoliyatidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday iqtisodiy inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyati ham shakllanadi.

Oliv ta'lim dargohlari talabalarni barkamol yetuk inson qilib shakllantirish bu uning boy ma'naviy dunyosini shakllantirishidir. Ma’naviy olam esa, eng avvalo, insonning ilg‘or dunyoqarashi yuksak axloqiy fazilatlari, nozik didi, iymon-e'tiqodi va boshqa ijobjiy fazilatlar va hislatlarni o'z ichiga oladi. Agar talabaning mustahkam siyosiy va axloqiy e'tiqodi bo'lmasa, u turli ta'sirlarga o'z qarashlarini, hayotiy pozitsiyasini o'zgartirib tursa, bu talabani ma’naviy jihatdan mukammal shaxs deya olmaymiz. Shu sababdan, talaba yoshlarning qat’iy va aniq pozitsiyasi, vatanparvarligi, o‘z manfaatlarini vatan manfaatlarini bilan uyg‘unlashtira olishi, erkin va ijodiy fikr yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fazilatlarni tarbiyalashda milliy g‘oya va umummilliyl g‘oya, uning asosiy tushuncha va tamoyillari (yurt tinchligi, xalq farovonligi, vatan obodligi, komil inson g‘oyasi, diniy barkamollik, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik g‘oyalari) katta rol o‘ynaydi.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosobatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma’naviy-ruhiy hayotida o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega.

Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Axloq (arabcha *xulq-atvor demakdir*) - ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Talabalarni ma'naviy shakllantirishida ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarga ijtimoiy hayotda o'z o'mini o'zi topishi, o'zini kamol toptirish, o'z taqdirini o'zi belgilash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada umuminsoniy, milliy qadriyatlar asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish yotadi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayoni vazifasini ado etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ma'naviy ta'lim talabani aqliy, intellektual, ma'naviy, jismoniy rivojlanishida muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakat ravnaqini ko'p jihatdan uzliksiz ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu sababli ta'limning istiqboli, bugungi kunda tayyorlanayotgan mutaxassislarining bilimdonligi, kasb mahorati yuksak, ma'naviyatliliklari bilan o'z kelajaklarini qurish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ma'naviyat talabaning dunyoqarashiga, siyosiy, huquqiy madaniyatiga, jamiyat bilan jipslashuviga, ulkan ishlarga qo'l urishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyati shakllanmagan talaba ijtimoiy hayotda guruhbozlik, ayirmachilik, turli salbiy oqimlarga aralashib qolishi mumkin. Jipslik yetishmaydigan talaba-yoshlar kelajakda ulkan ishlarni amalga oshirolmaydilar. Ma'naviyat keng ma'noda talaba yoshlarning aqliy va hissiy dunyosi, hayoti, ularning tashkil qilinishi, takror yaratilishi va takomillashtirilishidir. Talabaning ma'naviyatini shakllantirish jamiyat hayotidagi g'oyaviy, ma'rifiy, madaniy qarashlarini o'zda aks ettiribgina qolmay, o'z kelajagiga ishonchni ham shakllantiradi.

Talabalarning ma'naviyatini shakllantirishda unga bilim berish, ilm-fan yutuqlaridan, adabiyot va san'at yutuqlaridan, milliy va umummilliy hamda umuminsoniy qadriyatlardan bahramand etish kerak. Shuningdek, milliy g'oya asosida ham tarbiyalash zarur. Aks holda hozirgi globallashuv va axborot xuruji davrida kimlardir yot g'oyalar ta'siriga chalg'ib ketishi mumkin. Biz bugungi kunda Vatanimizdagagi ma'naviy soha rivoji bilan har qancha faxrlansak arziyi. Chunki bu sohada erishilgan yutuqlardan faxrlanish bugungi kunda talaba yoshlarda kelajak uchun ma'suliyat bilan birga Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini shakllantiradi. Bugun fikr, g'oya yer sharining tayanch nuqtasiga aylanib turgan hozirgi bir paytda biz faqat va faqat milliy ma'naviyatimizga sobitligimiz evaziga taraqqiyotga erishmoqdamiz.

Ma'naviyat tarkibidagi muhim bir qatlama – bu bilimlardir. Ma'naviyat bilimlar negizida shakllanadi. Ilmning mag'zi bilimdir. Har bir insonda uning yoshlik chog'ida olgan ma'naviy bilimlari darjasini keyinchalik unda shakllanadigan insoniy fazilatlari uchun poydevori bo'ladi. Inson axloqi aqlga, xulqi, xatti-harakatlari ilmga, ma'rifatga asoslansagina ma'naviy kamolotga erishadi. Shaxsni ma'naviy barkamollikka erishuvi uning chuqr bilim olish va ma'rifatli bo'lismiga bog'liq.

O'tmishda yashagan mashhur mutafakkir allomalar ham ma'naviy barkamollikka erishishi uchun chuqr bilim olish va ma'rifatli bo'lismiga bog'liq ekanligini ko'rsatib, ilmning inson ma'naviy hayotida tutgan o'rnini yuqori baholaganlar. Ilm va bilim insoniy axloq bilan uyg'unlashgandagina yuksak ma'naviyatga ega bo'ladilar. Yoshlarga bilim berganda ta'lim jarayonini tarbiya bilan uyg'un olib borish yuksak ma'naviyatni shakllantirishdagagi bosh yo'nalishdir. Yoshlarni tarbiya qilishda milliy ong, milliy ruhni rivojlantirish, ularni yangicha sharoitlarda ya'ni bozor munosabatlari sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, tashabbuskorlikni rivojlantirish zarur. Shu bilan milliy tarbiyadagi zamonaviylikni ta'minlanishini ko'rsatadi.

El-yurtiga, Vataniga sadoqatli, iyomon-e'tiqodli, mard va jasur, malakasi yetuk, ma'naviyati yuksak insonlar, barkamol avlod har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbasidir. Ana shunday noyob xislat va fazilatlarga ega bo'lgan insonlarni, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazgan xalq, albatta, kelajakka ochiq ko'z, katta ishonch, umid va ixlos bilan qaray oladi. Ko'rinish turganidek, mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti taqdirini ham ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi.

Hozirda zamonaviy dunyo insoniylik prinsiplariga asoslangan, axloq normalariga va insoniylik axloqiga tayangan qadriyatlarga muhtojlik sezmoqda. Ularga quyidagilami kiritishimiz mumkin:

Insoniylik insonni axloqiy fazilati hisoblanib, insonni insonga hurmatini, insonni oliy qadriyat sifatida qarashni, uni tushunishni, unga yordam berishni ifodalaydi.

Insonga, uning qarashlari, qadriyatlariga ishonish, ushbu ideallarga xizmat qilish. O'z mas'uliyatini bajarishda erkinlik, maqsadga erishishni bilish, o'z o'ziga talabchan bo'lish va jamiyat talablarini bajarish hamda intizomli bo'lish.

O'z xatti-harakati uchun javob berish, o'z xatolarini tan olish va tuzatish.

Yer yuzidagi barcha jonzotlarga, tabiatga nisbatan hurmatda bo'lish.

Halollik, adolatilik, prinsipiallik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan hamda sabrli bo'la olish. Shaxsning axloqiy sifatlariga xushmuomalalik, axloqlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik. rahmdillik,

saxovatlilik, oqko'ngillilik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, baynalmilallik, sabrlilik, bilimlilik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, haqiqatgo'ylik, o'zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko'rastish kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, intizomlilik va v.b.

Muhokamalar va natijalar. Axloqiy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Axloqiy tarbiya talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Ushbu tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy me'yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bolgan qoida hisoblanadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratl maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalaming axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

Al Xorazmiyning asarlarda insonni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo'ylik, do'stlik, oljanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm-ma'rifat g'oyalari ilgari surilgan.

Forobiy "maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya - insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi", – deb aytadi. "Bunday inson, - deb yozgan edi Forobiy, - insoniy barkamollikning oliy sohibi va baxt saodat bo'ladigan xatti-harakatni biladigan zotdir" [1].

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchı mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqligida, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi Ibn Sino. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni etuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shamdi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi [2].

Abu Rayxon Beruniy axloqlikning ijtimoiy mezoni sifatida inson hayotida mehnatning ahamiyatini shunday ta'kidlaydi: "Baxtsizlikdan, johillikdan qutulish uchun mehnat qilish zarur" [3].

Abdurahmon Jomiy asarda bilimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o'rni va rolini ochib berish bilan birga har bir kishi tomonidan ma'lum hunar sirlarini o'zlashtirish foydadan holi bo'lmashagini uqtiradi. Ayni o'rinda insonning qadr-qimmati uning molu mulki bilan emas, aksincha, u tomonidan egallangan hunarning kishilar maishiy hayoti farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanishiga urg'u berib o'tadi.

Xulosa. Oliy ta'limda, maktabda, oilada axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy axloqsizlik, odobsizlik, manmanlik, kibrilik, dangasalik, maqtanchoqlik, ko'ngli qoralik, xasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e'tiqodsizlik,adolatsizlik, yolg'onchilik, qahri qattiqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko'rsatmaslik, intizomsizlik kabi salbiy sifatlarning shakllanishining oldi olinadi.

Adabiyotlar

1. Forobiy Abu Nasr. Mukammal ta'lim haqida risola. -T.: O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti. Inv. 62385. XXVII. 328a.var
2. Irisov A. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari.- Toshkent: "O'qituvchi", 1994.- B. 47
3. Sharipov A. Abu Rayhon Beruniy. -Toshkent: "Fan" 1999. 114-b.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. -T.: "G.G'ulom" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
5. Ziyomhammadov B., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. -T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
6. Рахмонова Г. Ш., Чоршамова А. Ф. Значимые стороны национальных игр в процессе воспитания дошкольников //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
7. Рахмонова Г. Ш., Жалилов З. Б. РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ //Academy. – 2020. – №. 12 (63).
8. Рахмонова Г. Ш. ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ И МЕТОДЫ ЕГО РАЗВИТИЯ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №.
9. Shavkatovna R. G. Formation of Spiritual and Moral Attitudes of the Student's Personality //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10. – №. 1.